



**MUTRIBI SAMARQANDIYNING “TAZKIRAT USH-SHUARO” ASARI
VA UNING O’RTA OSIYO, ERON VA HINDISTON XALQLARI
MADANIY ALOQALARINI O’RGANISHDAGI AHAMIYATI**

Tadjiyev Anvar Gafurjonovich

O’zbekiston Respublikasi Milliy Gvardiyasi

Harbiy musiqa akademik litseyi tarix o’qituvchisi

anvartadjiyev82@gmail.com

Annotatsiya:

Mazkur maqolada Mutribi Samarqandiyning “Tazkirat ush-shuaro” asarining adabiy va tarixiy ahamiyati, shuningdek, uning O’rta Osiyo, Eron va Hindiston xalqlari o’rtasidagi madaniy aloqalarni yoritishdagi o’rni tahlil etiladi. Asarda XVI–XVII asrlar madaniy hayotining o’ziga xos jihatlari, o’sha davr shoirlari, ulamolari va adabiy muhit vakillari o’rtasidagi ijodiy aloqalar ilmiy jihatdan yoritilgan. Mutribi Samarqandiyning “Tazkirat ush-shuaro”si faqat shoirlar haqidagi ma’lumotlarni emas, balki ular faoliyat ko’rsatgan muhit, saroy adabiy hayoti va madaniy qadriyatlar haqida muhim ma’lumotlarni ham o’z ichiga olgani bilan ajralib turadi. Tadqiqot natijalari ushbu tazkiraning Sharq xalqlari o’rtasidagi ilmiy va adabiy rishtalarni o’rganishda muhim manba ekanini ko’rsatadi.

Kalit so’zlar: Tazkiralar, tazkiranavis, xattotlik, nay, qomuz, shayboniylar, ulamo, adib, notiq.

Kirish

Bugungi kunda davlatimiz tomonidan olib borilayotgan siyosat ya’ni, qo’shni qardosh va yaqin Osiyo davlatlari bilan har tomonlama aloqalarni mustahkamlash, ayniqsa madaniyat, til, adabiyot va san’at va umuman ma’naviy jihatdan bir biriga yaqin bo’lgan sharq xalqlari o’rtasidagi tarixiy aloqalarni tiklash, ular bilan keng iqtisodiy, siyosiy va madaniy hamkorlikni yo’lga qo’yish kabi muhim tashabbuslar qanchalik dolzarb ahamiyatga ega ekanligini zamonning o’zi tasdiqlamoqda.

Madaniy aloqalar qadimdan O’rta Osiyo va qo’shni Sharq mamlakatlarida turli davr va tarixiy sharoitlarda yetishib chiqqan olim, adib va yetuk shoirlar o’rtasidagi



o'zaro ilmiy va adabiy munosabatlarda ifodalanadi. Shuningdek, madaniy aloqalar o'rta osiyolik sayyohlarning Sharq xalqlari tarixi, tabiati va yuksak madaniyati haqida bayon qilgan fikrlari misolida ham o'z aksini topadi.

Asosiy qism

Mutribi Samarqandiy asl ismi Sulton Muhammad bo'lib, hozirgacha u haqda juda oz ma'lumotlar mavjud edi. U XVI asrning ikkinchi yarmida tug'ilgan va taxminan XVII asrning 30-yillarida vafot etgan. U mashhur buxorolik shoir va adabiyotshunos Xoja Xasan Nisoriy (1005/1597 yil vaf.et.)ning shogirdi bo'lgan¹.

Sulton Muhammad Mutribiy Samarqandiy — Movarounnahr adabiyotini o'rganish va kengaytirish jarayoniga munosib xissa qo'shgan tadqiqotchilardan biri xisoblanadi. U nafaqat tazkira yozishda faol bo'lib, she'riyatda ham mustahkam qo'lga ega edi, balki nasr asarlari ham yozgan, bu asarlar fors-tojik nasrining eng muhim an'analarini davom ettirib, muallifning yozish mahoratini namoyon etadi². U zamonasining ko'p qirrali bilim egasi bo'lgan: falsafa, tarix, musiqa, xattotlik, poetika va adabiyot sohalarini puxta o'rgangan. Xususan, adabiyot va poetika sohasida Mutribi Xoja Xasan Nisoriyning , falsafa fanidan esa mashhur olim va faylasuf Yusuf Qorabohiyning shogirdi bo'lgan. Musiqa sohasida u Yo'mi Balxiydan, ilohiyot bo'yicha esa Mavlono Nazariy Badaxshiydan - Muqatta masjidining imomidan ta'lim olgan. Kitob bezaklari va zarhal yozuv san'atida u Rustam Naqqoshdan, xattotlikdan esa Sobit Miyonqoliydan saboq olgan.³

Mutribiy asarlarida keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, bo'lajak shoir 1559 yili Samarqandda tug'ilgan. Uning otasi tomonidan bobosi bo'lgan Malik Arg'un va onasi tomonidan bo'lgan bobosi Basiriy o'z zamonasining mashhur shoirlaridan bo'lgan. Mutribiyning otasi ham ilmiy va ma'rifatli inson bo'lgan.

Mutribiy boshlang'ich ta'limini o'zining tug'ilgan shahri - Samarqandda olgan. Uning she'riyat va musiqa sohasidagi iqtidori, ayniqsa nay va qomuz chalish

¹ Abdullayev V.A., Valixojayev B.N. "Majolis un-nafois" tipidagi bir tazkira haqida. - O'zbek tili va adabiyoti, 1965, № 5, 18-23 betlar; O'zbek adabiyoti tarixi, III tom. XVI asrdan XVII asrning 70-yillarigacha. Toshkent: Fan, 1978, 143-144-betlar.

² Qurbonaliyeva, M. S. Mutribi Samarkandi and his poems. Science and Innovation International Scientific Journal, 3(3). 2024. 96-100. 96-bet.

³ Б.А.Ахмедов. Мутриби и его антологии. - В кн.: Из истории культурных связей народов Средней Азии и Индии. ИВ АН УзССР. Т.: «Фан» Узбекской ССР, 1986 г. 36-bet.



International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences

Hosted online from New York, USA

Website: econfseries.com

2nd November, 2025

mahorati juda yoshligidanoq namoyon bo'lgan. Ilk ta'limini yakunlagach, u Buxoroga borib, u yerda yuqorida tilga olingan Xoja Xasan Nisoriydan adabiyat va she'riyat sirlarini o'rgangan. Uning musiqa sohasidagi birinchi ustozisi esa Kamoliddin Hofiz Abdurahim muzaxxib bo'lgan.⁴

Qisqasi, 1620-yilgacha Mutribiy asosan Samarqandda yashagan. U ancha vaqt davomida Samarqand hokimi amir Xojibiy Qushchining (1585 yildan hukmronlik qilgan) xizmatida bo'lgan. Keyinchalik u ashtarxoniyalar sulolasidan bo'lgan Vali Muhammadxon (1605–1611) huzurida xizmat qilgan.

1612 yilda esa u Hindistonga sayohat qilish niyatini qilgan, ammo oilaviy sharoitlar tufayli — uning qaramog'ida 20 nafar oila a'zosi bo'lgani uchun — bu orzusini o'sha paytda amalga oshira olmagan.⁵

1620–1624 yillar davomida Mutribiy o'zining ikkinchi antalogiyasi - “Nusxa-yi zeboi Jahongir” asarini yaratish ustida jadal ish olib borgan. U bu yillarda Movarounnahr, Balx, Badaxshon shaharlariga ko'p safar qilgan va antalogiya uchun zarur bo'lgan materiallarni to'plagan. 1624 yilda, ya'ni 69 yoshida, Mutribiy mazkur asarni yozishga kirishgan va uni bir yil ichida yakunlagan.

1625 yil kuzida u o'g'li Muhammad Ali bilan birga Hindistonga yo'l olgan. Yo'lda u Balx va Kobul shaharlarida biroz vaqt to'xtab, bu fursatdan yangi materiallar to'plash uchun foydalangan.

Nihoyat, keyingi yili u Lahorga yetib borgan — o'sha vaqtda bu yerda Jahongir saroyi joylashgan edi. Mutribiy u yerda bir necha oy davomida antalogiya ustida ishini davom ettirgan va uni tugallab, nihoyat Jahongir xuzuriga taqdim etgan.

Mutribiy Lahorda bir yilcha yashab, 1627 yilda, ya'ni 71 yoshida, ona shahri — Samarqandga qaytgan. Uning keyingi taqdiri haqida esa hech qanday ma'lumot saqlanmaganligi aytiladi.⁶

Mutribi Samarqandiy o'zining ilmiy saviyasi va ijodiy qobiliyati bilan o'sha davr adabiy muhitida alohida mavqega ega bo'lgan.

“Tazkirat ush-shuaro” 1605-yilda yozilgan bo'lib, muallif uni o'sha davr Movarounnahr hokimi Valimuhammad Bahodirxonga bag'ishlagan. Asarda jami

⁴ O'sha kitob, 34-bet.

⁵ O'sha kitob, 36-bet.

⁶ O'sha joyda.



International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences

Hosted online from New York, USA

Website: econfseries.com

2nd November, 2025

343 nafar shoir haqida ma'lumot berilgan bo'lib, ular uch toifaga bo'lingan: muallif ko'rgan va suhbatlashgan shoirlar, eshitgan, ammo ko'rmagan shoirlar hamda faqat boshqa manbalardan ma'lum bo'lgan shoirlar. Bu tizim tazkirani tarixiy manba sifatida yanada ishonchli qiladi.

Tazkira ikki bo'limdan iborat: birinchi bo'limda 17 nafar podsho va hokimlar — she'riyatga qiziqqan hukmdorlar haqida ma'lumot berilgan. Mutribiy o'z asarida Abdullaxon II, Abdulmo'min, Abdulsulton, Abdulhayr sulton, Bahodir sulton, Muzaffar sulton va boshqa hukmdorlar haqida so'z yuritadi. U ularni shaxsan tanishini va ayrimlariga xizmat qilganini ta'kidlaydi.⁷

So'nggilari esa (Abdulhayr sulton va Muzaffar sulton) Samarqand hokimi shayboniylar sulolasidan bo'lgan Jo'vonmardali xonning o'g'illari bo'lgan. Ular Abdullaxon II ning buyrug'i bilan mos ravishda 1578 va 1582 yillarda qatl etilgan. Qizig'i shundaki, "Tazkirat ush-shuaro" asarida aynan shu ikki shaxs haqida keng o'rin berilgan, ayniqsa Abdulhayr sulton haqida juda batafsil ma'lumotlar keltirilgan. Mutribiy hatto uning xulq-atvori va odatlari haqida ham yozib, uni jasur, lekin isyon va tartibsizlikka moyil inson sifatida tasvirlaydi. Shu asosda taxmin qilish mumkinki, Mutribiy aynan Jo'vonmardali xon va uning o'g'illariga xizmat qilgan bo'lishi ehtimoldan xoli emas.⁸

Ikkinchi bo'lim esa 326 nafar shoirning hayoti va ijodini yoritadi. Mutribiy shoirlarning g'azallari, qasidalari va ruboiylaridan namunalar keltirib, ularning aruz tizimidagi yutug'ini ham izohlaydi. Asarda muallif Movarounnahrda yashab ijod etgan shoirlardan tashqari xuroson va eronlik shoirlarni ham ijodiy yutuqlari, yashagan davri va ijod ahli dunyosida tutgan o'rni haqida batafsil ma'lumot keltiradi. Ulardan ba'zilar haqida B.Ahmedov⁹, M.Qarbonaliyeva¹⁰, F.Akramov¹¹ va boshqa tadqiqotchilar izlanishlariga tayanib quyida ma'lumot berib o'tamiz:

⁷ O'sha kitob, 35-bet.

⁸ O'sha joyda.

⁹ B.A.Ахмедов. Мутриби и его антологии. - В кн.: Из истории культурных связей народов Средней Азии и Индии. ИВ АН УзССР. Т.: «Фан» Узбекской ССР, 1986 г. 33-37

¹⁰ Kurbonaliyeva, M. S. (2020). The structure and the features of "Tazkirat-ush-shuara" mutribi samarkandi. *ISJ Theoretical & Applied Science*, 06 (86), 581-585

¹¹ Акромов Ф. Тазкираи "Нусхаи зебон Чахонгирӣ"-и Мутрибӣ чун сарчашмаи омӯзиши ҳаёти адабии Мовароуннахру Ҳинд [Асри XVI ва ибтидои асри XVII]. – Душанбе, 1998. -140 с



International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences

Hosted online from New York, USA

Website: econfseries.com

2nd November, 2025

Urfi Sheroziy - XVI asr ohirida ijod qilgan, asli Sherozlik, keyin Hindistonga borgan va Akbar saroyida yashagan. G'azal va qasidalarida hikmatli, falsafiy mazmun ustun. Mutribiy, shoir Urfiy haqida gapirib shunday yozadi:

“Sheroz viloyatidan chiqqan bu mahorat bulbuli Hindistonning shirinliklarini tatib ko'rishni hohlab, buyuk va qudratli hukmdor Jaloliddin Muhammad Akbarshoh bilan uchrashish baxtiga muyassar bo'ldi. U u yerda katta ehtirom bilan qabul qilindi, lekin o'ta sahiy bo'lgani uchun hech qachon saroy qoidalariga moyil bo'lmagan, deyarli har doim o'z hohishiga ko'ra harakat qilgan.”¹²

Ahmad Giloni - u Gilon mintaqasiga mansub fors shoiri sifatida ko'rsatiladi. U hijriy 942-yil, ya'ni, 1535- milodiy yilda tug'ilganligi aytiladi.

Akdasiy Xurosoniy — xurosonlik shoir bo'lib, tug'ilgan yili hijriy 976-yil, 1568- milodiy yilda ekanligi ko'rsatib o'tiladi.¹³

Bundan tashqari asarda tadqiqotchi I. Adizovaning ta'kidlashiga ko'ra XVI asrning ikkinchi yarmida Markaziy Osiyo, Afg'oniston, Pokiston, Hindiston, Sharqiy Turkiston, Turkiya, Iroq va Yaman hududlarida yashab ijod etgan 343 nafar yetuk shaxs haqida ma'lumotlar keltirilgan aytilib, ular orasida shoirlar, musiqachilar, xattotlar va rassomlar ham mavjud ekani, ularning adabiy muhiti, o'zaro ta'siri va munosabatlariga alohida e'tibor qaratilgan ta'kidlanadi.¹⁴

Ushbu holat shuni ko'rsatadiki, tazkiralarda nafaqat shoirlar va ularning ijodiy merosi, balki olimlar, ulamolar, rasmiy shaxslar faoliyati, mamlakat tarixi, madaniyati va topografiyasini o'rganish uchun ham muhim manbadir.

Yana bir muhim jihati shundaki, ko'p hollarda tazkiralardagi izohlar va ma'lumotlar o'zaro to'ldiruvchi harakterga ega bo'lib, ularda ma'lum tarixiy shaxslar, ijod ahli haqida tarixiy manbalarda qayd etilmagan ma'lumotlar ham keltirilgan. Bu esa ilmiy izlanishlarda izchillik va davomiylikni ta'minlaydi.¹⁵

Mutribi Samarqandiyning tazkirasida Sharq adabiy-madaniy aloqalarini o'rganishda o'ziga xos ko'priklar vazifasini o'taydi. Asarda Hindiston, Eron va Movarounnahr

¹² Kurbonaliyeva, M. S. (2020). The structure and the features of “Tazkirat-ush-shuara” mutribi samarkandi. *ISJ Theoretical & Applied Science*, 06 (86), 581-585, 583-bet

¹³ O'sha joyda.

¹⁴ Adizova, I. Interpretation of the Poetic Views of the Period in Mutribi Tazkiras (Essays). In Proceedings of the 1st Pamir Transboundary Conference for Sustainable Societies (PAMIR 2023), pages 97-101, 97-bet

¹⁵ Kholnazarova, L.S. Writing Tadhkirahs, Thinkers of Central Asia. *International Journal on Integrated Education*. Volume 4, Issue 4, April 2021 | 218-223, 219-bet



International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences

Hosted online from New York, USA

Website: econfseries.com

2nd November, 2025

shoirlari o'rtasidagi ijodiy munosabatlar, ustoz-shogird maktabi va adabiy an'analar davomiyligi yoritilgan. Muallif o'z davrida Hindiston saroyida faoliyat yuritgan Faiziy Dakaniy, Urfiy Sheroziy, Shoja'iy Isfahoniy singari fors-tojik shoirlari haqida ham batafsil ma'lumot beradi. Bu holat Fors va Turk dunyosi o'rtasidagi madaniy integratsiyaning yaqqol ko'rinishidir.

Tazkira o'z davrining ijtimoiy-siyosiy hayotini, adabiy yo'nalishlarini va shoirlarning dunyoqarashini o'rganish uchun muhim manbadir. Unda shoirlarning ijodiy merosi bilan birga, ularning o'zaro aloqalari, saroy adabiy muhitidagi mavqelari ham yoritilgan. Asar Movarounnahr adabiy muhitining Hindiston va Eron bilan bo'lgan madaniy rishtalarini tarixiy asosda o'rganishga imkon beradi.

Xulosa

Umuman tazkiralarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, ular orqali nafaqat madaniy hayotni, balki ma'lum bir davrning ruhini, ijtimoiy kayfiyatini ham baholash mumkin. Bunday tazkiralalar orasida hukmdorlar nomidan yoki ularning himoyasida yaratilganlari, shuningdek, avvalgi tazkiralarni davom ettirish yoki to'ldirish maqsadida shaxsiy tashubbus bilan yozilganlari ham mavjud bo'lib, Mutribiy tazkirasi shunday shaxsiy tazkiralalar sirasiga kiradi va uning o'zi takidlaganidek, asarini ustoz Xoja Xasan Nisoriyning "Muzakkir ul-axbob" tazkirasi davomi sifatida baholaydi.¹⁶

Xulosa qilib aytganda, Mutribi Samarqandiyning "Tazkirat ush-shuaro" asari o'z davrining adabiy, madaniy va tarixiy hayotini keng qamrab olgan nodir manbadir. Asarda O'rta Osiyo, Eron va Hindiston shoirlari o'rtasidagi madaniy aloqalar, adabiy maktablar hamda ilmiy muhitning umumiy ko'rinishi yoritilgan. Bu jihatdan asar Sharq xalqlari o'rtasidagi madaniy uyg'unlik va adabiy tafakkurning yuksak darajada bo'lganini ko'rsatadi. Mutribi o'z asari orqali faqat shoirlar haqida emas, balki ularning davr muhitini, ijodiy va ilmiy qarashlarini ham yoritib bergan.

¹⁶ Kurbonalieva, M. S. (2020). The structure and the features of "Tazkirat-ush-shuara" mutribi samarkandi. *ISJ Theoretical & Applied Science*, 06 (86), 581-585, 581-bet



Foydalanilgan adabiyotlar

1. Б.А.Ахмедов. Мутриби и его антологии. - В кн.: Из истории культурных связей народов Средней Азии и Индии. ИВ АН УзССР. Т.: «Фан» Узбекской ССР, 1986 г.
2. Акрамов Ф. Тазкираи “Нусхаи зебои Чахонгирӣ”-и Мутрибӣ чун сарчашмаи омӯзиши ҳаёти адабии Мовароуннаҳру Ҳинд [Асри XVI ва ибтидои асри XVII]. – Душанбе, 1998. -140 с
3. Qurbonaliyeva, M. S. (2024). Mutyribi Samarkandi and his poems. *Science and Innovation International Scientific Journal*, 3(3), 96–100.
4. Kurbonaliyeva, M. S. (2020). The structure and the features of “Tazkirat-ush-shuara” mutribi samarkandi. *ISJ Theoretical & Applied Science*, 06 (86), 581-585
5. Adizova, I. Interpretation of the Poetic Views of the Period in Mutribi Tazkiras (Essays). In *Proceedings of the 1st Pamir Transboundary Conference for Sustainable Societies (PAMIR 2023)*, pages 97-101
6. Kholnazarova, L.S. Writing Tadhkirahs, Thinkers of Central Asia. *International Journal on Integrated Education*. Volume 4, Issue 4, April 2021 | 218-223
7. Abdullayev V.A., Valixo’jayev B.N. “Majolis un-nafois” tipidagi bir tazkira haqida. - *O’zbek tili va adabiyoti*, 1965, № 5, 18-23 betlar; *O’zbek adabiyoti tarixi*, III tom. XVI asrdan XVII asrning 70-yillarigacha. Toshkent: Fan, 1978, 143-144-betlar.